

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2023 Vol. 1

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN:**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2023 Vol. 1**

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Nodir Jo'raqo'ziev  
Ziyoda Teshaboyeva

**Mas'ul kotiblar:** Ozoda Tojiboyeva  
Sanjar Mavlyanov

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editors in Chief:** Nodir Jurakuziev  
Ziyoda Teshabaeva

**Executive secretaries:** Ozoda Tajibaeva  
Sanjar Mavlyanov

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova**

Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari.....6

#### **Sayali Sadıqova**

Azərbaycan dilində hərbi termin yaradıcılığı.....19

#### **Nurislom Xursanov**

Tilshunoslikda diskurs va pragmatikaga aloqador hodisalar.....30

#### **Rəxşanə Babazadə**

Eyni kökdən ayrılan mənalar (Azərbaycan və Türkiyə Türkçələri əsasında).....46

#### **Ehsanullah Quvanch**

O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni.....60

### Adabiyotshunoslik

#### **Ilhom Aslonov**

Temuriy hukmdorlar obrazining "Boburnoma" da aks etishi.....73

#### **Gulandom Yuldasheva**

Mariya Sabtelni tadqiqotlarida Hirot madaniy muhiti tavsifi.....84

### Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

#### **Adhamjon Ashirov**

O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti.....97

### San'at

#### **Jamoliddin Jo'rayev**

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralar xususida.....108

## CONTENT

### Linguistics

#### **Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova**

Grammatical and functional characteristics of some  
standard tools in newspaper language.....6

#### **Sayalı Sadıqova**

Creation of military terms in the Azerbaijani language.....19

#### **Nurislom Khursanov**

Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics.....30

#### **Rəxşanə Babazadə**

Meanings separated from the same root.....46

#### **Ehsanullah Quvanch**

The status of the Uzbek language during the Islamic  
Republic of Afghanistan and its place in the state system.....60

### Literature

#### **Ilhom Aslonov**

Reflection of the image of the Timurid rulers in "Baburnama".....73

#### **Gulandom Yuldasheva**

A description of the cultural environment of Herat in the studies  
of Maria Sabtelni.....84

### Ethnology. Ethnography. Anthropology

#### **Adhamjon Ashirov**

The cult of the horse in the oral creativity of the lifestyle  
of the Uzbek people.....97

### Art

#### **Jamoliddin Juraev**

On the miniatures worked to the manuscripts of Haydar Khorazmi's  
"Gulshan ul-asrar" .....108

ADABIYOTSHUNOSLIK  
LITERARY

## Temuriy hukmdorlar obrazining “Boburnoma”da aks etishi

Ilhom Aslonov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lishi bilan birgalikda yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyot, san'at, tarix va ilm-fanning turli jabhalarida bebaho asarlar yaratdi. “Boburnoma” uning keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan serjilo o'zbek tilida yozilgan, uzoq yillardan beri jahon olimlari adabiyotshunoslari, tarixchilari, etnograflari e'tiborini o'ziga tortib kelayotgan adabiy va tarixiy memuar asardir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Ushbu maqola “Boburnoma”da badiiy-psixologik tasvir muammosi tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda temuriylar saltanatidagi hukmdor etiketi va siyosiy iyerarxiyaning badiiy-psixologik tasviri xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** *badiiy-psixologik tasvir, “Boburnoma”, “temuriy salatini”, temuriy shahzodalar tarbiyasi, hukmdor etiketi, siyosiy iyeraxiya.*

### Kirish

Temuriylar davlatida hukmdorlik axloqi va saltanat etiketi uzoq yillik an'analarga tayanar edi. Shuni ta'kidlash joizki, turkiy xalqlar davlatchiligi tarixi temuriylarga qadar 20 asrdan ko'proq davrni bosib o'tgan. “Amir Temur va temuriylar zamoni davlatchilik siyosati, boshqaruv tizimini ko'rib chiqmoqchi ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq “boshiga bir

---

<sup>1</sup>Aslonov Ilhom Nizomovich – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** ilhom-aslonov@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-2055-1507

**Iqtibos uchun:** Aslonov, I. N. 2023. “Temuriy hukmdorlar obrazining “Boburnoma”da aks etishi”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 73-83.

marta bitilgan bo'ladi". Shu ma'noda o'zbek davlatchiligi miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidan o'z tarixini boshlab to Amir Temur davlatimiz tepasiga kelgunga qadar deyarli 2100 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgandi" [Азамат 2001, 171].

"Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Bobur siyosiy iyerarxiya, hukmdor etiketi masalasiga yondoshar ekan, davlat boshqaruvi, yurish-turish kiyinish, mehmon qabul qilish, hurmat va e'tibor ko'rsatishda asosan temuriylar odat an'alariga, ayrim holatlarda esa mo'g'ullar urfiga amal qilinganligi haqida yozadi. Shu ma'noda "Boburnoma"da Amur Temur 19 o'rinda tilga olinsa, Chingizxon nomi 6 o'rinda qayd etiladi.

Bobur otasi Umarshayx haqida gapirib, "yozlar g'ayri devonda aksar mug'uli bo'rk kiyar edi" [Бобур 1960, 27] deydi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, temuriy mirzolar davlat ishlarida turkiy odatga amal qilib salla o'rasalar, boshqa vaqtlarda mo'g'uliy kiyimlarni ham kiyishlari odat bo'lgan.

Saltanat boshqaruvida Temuriya dasturi va Chingizxon to'rasiga amal qilish holatlari bo'lganligi "Boburnoma"da keltiriladi: "Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to'shak ustida o'tlurur edim. Hamza Sulton bila Mahdi Sulton va Mamoq Sultonkim keldilar, bu salotinning ta'zimig'a qupub to'shakdin tushub, bu sultonlar bila ko'rushtum" [Бобур 1960, 92]. Yoki: "Burunlar bizning ota-og'a Chingiz to'rasini g'arib rioyat qilurlar edi, majlisda va devonda, to'y va oshda, o'turmoqda va qo'pmoqda xilofi to'ra ish qilmaslar edi [Бобур 1960, 250].

Boburning mulohazalaridan shu narsa aniq bo'ladiki, avval boshda devon-u majlis, marosimlarda, yurish-turishda mo'g'uliy an'alar ustuvor bo'lgan bo'lsa, sekin-asta bu odat va an'alar o'z ta'sirini yo'qota borgan. Umuman, kuchli davlatchilik siyosatidan mosuvo bo'lib, keyinchalik mayda bo'laklarga ajralib, yollanma askarlarga aylangan mo'g'ullarning ayrim odatlari va xulq-atvorlari Bobur tomonidan qattiq tanqid qilinadi: "Mo'g'ul cheri-kikim, ko'makka kelib edi, urushqa xud toqatlari yo'q edi. Urushmoqni qo'yub, bizning elni-o'q talab, ottin tushura kirishtilar. Bir bu emas, hamisha badbaxt mo'g'ulning odati ushmundoqtur. Bossa ham o'lja olur, bostursa ham o'z elini talab tushurub o'lja olur" [Бобур 1960, 145].

Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur odat va an'analarga ko'r-ko'rona amal qilish tarafdori emas, balki aql yuzasidan lozim bo'lganda bu an'analarni o'zgartirish kerakligini aytadi: "Chingizxonning to'rasi nassi qoti' emasturkim, albatta kishi aning



bila amal qilg'ay. Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak" [Bo'gyp 1960, 250].

Shuning uchun ham Bobur siyosiy nuqtayi nazaridan kelib chiqib, "temuriya salotin" qoidalarini ham o'zgartishga jazm etadi "Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdumkim, meni podshoh degaylar" [Bo'gyp 1960, 278].

Shunisi ma'lumki, temuriy shahzodalar, mirzolar yoshligidan jang qilish, devon ishlarini boshqarish bilan bir qatorda iyerarxiyaga mos tarzda har xil mavqe va tabaqaga xos kishilar bilan muomala qilish hamda etiketga muvofiq tarzda o'zini tutishga o'rgatib borilgan.

Temuriy shahzodalar tarbiyasiga qanchalik katta e'tibor qaratilganligini, ularga bilim bergan ustozlar saviyasi naqadar yuksak bo'lganligini birgina Bobur misolida ko'rish mumkin. Darvoqe, Bobur 12 yoshda taxtga o'tiradi. To'g'ri, Umarshayx o'g'lini ilm olishi uchun ko'plab, ustozlar mudarrisarlarni jalb etgan, ammo birinchi muallim, albatta, uning o'zi va Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim edi. Chunki tarbiya shahzodalar uchun juda erta boshlanar edi. Boburning onasi mo'g'ul xonlari avlodidan edi, shuning uchun uning savodli, ilmli bo'lganligiga shubha yo'q, lekin Bobur onasining she'riyatga, adabiyotga moyilligi haqida biror joyda yozmaydi. Aksincha, u otasi haqida gapirar ekan, "Ravon savodi bor edi "Xamsatayn" va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o'qub edi. Aksar "Shohnoma" o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi", - deydi. Shundan kelib chiqadiki, Boburdagi adabiyotga, she'rga oshuftalik ko'proq otasining ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa ajab emas.

Keyinchalik shahzodalar uchun alohida bek tayin qilingan. Shu tarzda har bir shahzodaga (yosh malikalarga ham I.A.) "Bek atka"lar biriktirilgan.

"Sulton Abusaid Mirzo avval Kobulni Umarshayx mirzog'a berib, Boboi Kobuliyni bek atka qilib, ruxsat berib edi. Mirzolari sunnat qilur to'yi jihatdin Darai Gazdin yondurub, Samarqand eltti. To'ydin so'ngra ul munosabat bilakim, Temurbek ulug' Umarshayx mirzog'a Farg'ona viloyatini bergandur, Andijon viloyatini berib, Xudoyberdi Tug'chi Temurtoshni bek atka qilib yibordi" [Bo'gyp 1960, 64].

Demak, "bek atka"lar tanlashda nafaqat amaldorning tajribali bo'lishi balki aynan shu viloyatni va viloyatda yashovchi kishilarni

ham yaxshi bilishi hisobga olingan.

Bobur o'ziga birlashtirilgan bek atkalar haqida gapirar ekan, ularning "zabti va tuzuki"ga yuqori baho bersa-da, ularning insoniy sifatlarini salbiy baholaydi: "Shayx Mazidbek edi, manga avval bek atka ani qilib edilar. Zabti va tuzuki xili yaxshi edi. Bobir mirzog'a xizmat qilg'ondur. Umarshayx mirzo qoshida andin ulug'roq bek yo'q edi. Fosiq kishi erdi, chuhra saxlar edi" [Шамсиев 1960, 70].

"Yana bir Boboquli Bobo Alibek edi. Shayx Ali Bahodirning naslidin edi. Shayx Mazidbek o'lganidin so'ng ani manga bek atka qildilar. Sulton Ahmad mirzo Andijong'a cherik tortqonda Sulton Ahmad mirzog'a kirib O'ratepani berdi. Sulton Mahmud mirzodin so'ng Samarqandtin qochib keladurganda O'ratepadin Sulton Ali mirzo chiqib urushub, bosib o'lturdi. Zabti va yarog'i yaxshi edi. Navkarni yaxshi saxlar edi. Benamoz edi, ro'za tutmas edi. Zolim va kofirvash kishi edi" [Bobur 2017, 78].

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zi yuksak e'tiqodli inson bo'lganligi tufayli kishilar xulqiga baho berishda eng avvalo ularga e'tiqodi, taqvodorligi, islom ahkomlarini qay darajada ado etishiga qarab yo ijobiy, yo salbiy baho beradi va bu boradagi o'zining keskin qarashlarini namoyon etadi.


Asarda berilgan shaxslar obrazlarini biz Bobur ko'zi bilan uning shaxsiy munosabati prizmasi orqali ko'ramiz. U adolatli, talabchan, xolis kuzatuvchi sifatida insonlar obrazini tasvirlasada, unga maqbul va nomaqbul bo'lgan sifatlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi.

Umarshayx Mirzo haqida: "hanafiy mahzabida. Pokiza e'tiqodli kishi edi. Besh vaqt namozni kanda qilmasdi. Umriy namoz qazolarini butunlay tamomlagan edi", Qosimbek qavchin haqida: "musulmon va diyonatli, taqvodor kishi edi" – degan jummalarda Boburning mazkur shaxslarga nisbatan faxr va hurmat tuyg'ulari sezilsa, Umarshayx Mirzoning amirlaridan biri Boboquli Bobo

Alibek haqida aytgan: "Benamoz edi, ro'za tutmasdi. Zolim va kofirtabiat kishi edi" [Bobur 2017] degan so'zlarida bunday shaxslarga nisbatan salbiy his-tuyg'ulari seziladi.

Shu qisqa parchada Bobur Umarshayx Mirzo va uning 12 nafar amirlari haqida tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda ularga psixologik xarakteristikalar beradi. Quyida tarixiy shaxslarga berilgan ijobiy va salbiy psixologik sifatlarni taqqoslashga harakat qildik:

1-jadval



Diagrammada berilgan ijobiy va salbiy psixologik sifatlarni taqqoslaydigan bo'lsak, ijobiy sifatlar 7 o'rinda salbiy sifatlardan ustun kelgan bo'lsa, salbiy sifatlari ustun kelgan shaxslar soni 5 nafarni tashkil etadi.


Yuqoridagi diagrammadan aniq bo'ladi-ki, Bobur o'z asarida haqqoniylikka, kishilarga baho berishda adolatli va xolis bo'lishga harakat qilganligi ko'rinadi. Yana shuni ham ta'kidlash kerak-ki, odamlardagi tilga olingan salbiy sifatlarning nisbatan ko'pligi Bobur xarakteridagi atrofdagilarga hamda o'ziga nisbatan o'ta talabchanlik xislatini namoyon etadi.

Xuddi shu taxlitda, Sulton Husayn Mirzo va uning amirlariga berilgan ta'riflar tahlili ham diqqatga sazovordir. Sulton Husayn Mirzo amir-u umarolari haqida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra shuni aytish mumkinki, asarda nomlari keltirib o'tilgan ayrim shaxslar haqida u batafsil ma'lumotlar beradi, ba'zilarining birkita sifatlarini qayd etsa, ayrimlarining faqat nomlarinigina sanab o'tadi. Shundan kelib, chiqadiki, Bobur Sulton Husayn Mirzo atrofidagi beklar haqida Umarshayx Mirzo amirlariga qaraganda tabiiyki, kamroq ma'lumotga ega bo'lgan. Ammo shu ma'lumotlar ham Sulton Husayn va uning atrofidagilar hayoti va xulq-atvori haqida tugal taassurot uyg'otishga yetarli bo'lib hisoblanadi. Sulton Husayn Mirzo beklari sifatlarini sanar ekan Bobur beklar orasida Mirzoga sodiq kishilar, mohir sarkardalar va jang ustalari ko'pligini aytib, ular erishgan g'alabalarini havas bilan qayd etadi. Bobur amir

va sarkardalarga baho berishda eng yuqori o'ringa qo'yadigan yana bir sifat ularning jangovor sifatlari, olib borgan urushlari va jangda erishgan g'alabalaridir.

Yana shuni aytish joizki, biror bir hukmdorning amir-u beklari haqidagi ma'lumot berar ekan, u, avvalo, eng hurmatga sazovorlaridan boshlaydi. Jumladan, Umarshayx Mirzo misolida bu Xudoyberdi Temirtosh bo'lsa, Sulton Husayn mirzo beklaridan eng nufuzlisi Muhammad Burunduq, Muzaffar Barlos va Alisher Navoiylardir.

2-jadval



Jadvaldan ko'rinadiki, ijobiy sifatlar 14 o'rinda salbiy sifatlardan ustun kelgan bo'lsa, salbiy sifatlari ustun kelgan shaxslar soni 5 nafarni tashkil etadi.

“Boburnoma”dagi shaxslarga berilgan psixologik tavsiflarni tadqiq etarkanmiz, muallif kishilardagi *saxiylik, oliyanoblik faqirlik va odmilik, zolimlik, baxillik, munofiqlik, fitnakorlik va xasislik* kabi axloqiy psixologik sifatlarga eng ko'p e'tibor qaratganligini ko'ramiz. Bobur keyingi o'rinda *mardlik, shijoatlilik, g'ayratlilik, intizomlilik*

*yoki hafsalasizlik, fe'li torlik* kabi irodaviy sifatlarga murojaat qiladi. Navbatdagi o'rinda muomala va muloqotchanlik sifatlari uning e'tiborini tortib, u kishilardagi *xushmuomalalik, gapga chechanlik, hazil-mutoyibaga moyillik, kamgaplik yoki sergaplik, xushomadga moyillik, "qattiqso'zlik"* kabi sifatlarni qayd etadi.

Temuriy mirzolar tarbiyasida shaxsning saltanat boshqaruvida, jang-u jadalda ko'rsatgan yutuqlariga qarab, shuningdek, avlod shajarasidagi o'rniga, yoshiga mos tarzda munosabat qilish o'ziga xos axloqiy me'yorlar asosida singdirib borilgan.

Temuriy mirzolarining ayrim holatlardagi noloyiq xatti harakatlarini Bobur o'ziga xos xolislik bilan tilga olsa-da, matn mazmunidagi istehzo sezilib turadi: "Men bu tarafdin otdin tushdum, Abulmuhsin mirzo ul taraftin otdin tushti, yurub ko'rushub otlanildi, ilgarrak kela o'rduning yovug'ida Muzaffar mirzo va Ibni Husayn mirzo keldilar. Bular Abulmuhsin mirzodin yoshqa kichik edilar, kerakkim burunroq istihbolg'a kelsalar edi, g'olibo bu ta'xir xumor jihatidin ekandur, ne takabburdin..." [Bo'by 1960, 250].

"Badiuzzamon mirzoning devonxona uyiga ettuk, muqarrar andoq edikim, men uydin kirgach yukung'aymen, Badiuzzamon mirzo qo'pub araqqa kelgay, dog'i ko'rushulgay, men uydin kirgach, bir yukundum, dog'i bedarang mutavajjih bo'ldum, Badiuzzamon mirzo ohistaroq qo'pub, sustroq yurudi" [Bo'by 1960, 250].

"Boburnoma"da bir o'rinda xuddi shunday psixologik holat aks etadi: "Ikkinchi navbat kelganda Badiuzzamon mirzo burungidek ta'zim qilmadi, Muhammad Burunduqbekka va Zunnunbekka ayturdimkim, agarchi yoshim kichikdur, vale to'rum ulug'dur, ota taxtidakim, Samarqand bo'lg'ay, ikki navbat zarbi rost olib o'lturubdurmen bu xonavoda uchun yot-yog'i bilakim muncha jang va jadal qilibturmen, mening ta'zimimda ta'xir bevajhdur, bu so'z mazkur bo'lg'och, chun ma'qul edi, mu'tarif bo'lub, ta'zimni xotirxoh qildilar" [Bo'by 1960, 250].

Xuddi shunday hurmatsizlikka yo'l qo'ygan Xisravshohga nisbatan u hech qanday munosabat bildirmaydi. Chunki Xisravshoh Badiuzzamonga o'xshab shahzodalar tarbiyasini ko'rmagan edi, undan saltanat etiketi qoidalarini talab qilish nojoiz edi. Keyinchalik Xisravshoh bor lashkaridan ajralib, Boburga yukunib kelgan holatida ham uning saroy axloq qoidalarini bilmasligi ma'lum bo'ladi.

"Ul tarafdin Xisravshoh hashamat va tajammuli bila qalin kishi bila keldi. Qoida va dastur bila yiroqtin tushub keldi. Ko'rushurda uch qatla yukunub, yong'onda ham uch qatla, so'rg'onda va tortuq tortqonda biror yukundi. Jahongir mirzog'a va xon mirzog'a

dag'i ushbu dastur bila yukundi. ... Yigirma besh, yigirma olti qatla payo pay yukundi va bordi va keldi. Toliqib tamom yiqila yozdi. Necha yil qilg'on bekligi va saltanati tamom burunidin chiqti. Ko'rushub tortiq tortgandin so'ngra buyurdumkim, o'turdi. Bir qari, ikki qari o'turub, ul tarafdin-bu tarafdin so'z va hikoyat aytildi. Bovujudi nomardliq va namakharomliq kovok va bemazago'y ham bor ekandur" [Bo6yp 1960, 181].

Shuni ta'kidlash kerakki, "temuriya salotini dasturi" bilan tanish bo'lmagan Xisravshoh "yukunish" rasmiga rioya qilmagan holda temuriy pukmdorlar etiketiga amal qilish uchun harakat qiladi va xatolarga yo'l qo'yadi, hech qanday hukmdorlik rutbasiga ega bo'lmagan Jahongir mirzo va Xon mirzoga ham hukmdor Boburga nisbatan qilingan xatti-harakatni takrorlaydi. Matnda Boburning Xisravshohga nisbatan nafrati yaqqol sezilib turadi. Uning "kovok va bemazago'y" ekanligining sababi nomardligi va haromnamakligi ekanligini ta'kidlaydi. "Necha yil qilg'on bekligi va saltanati tamom burunidin chiqti" kabi Bobur tilidagi oddiylik, xalqona iboralar matn ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Xisravshohning mulkgirligi, dag'dag'alari uzoqqa bormaydi. Bobur uning lashkarlari orasida obro'-e'tibori unchalik emasligi, "muncha zulm va bedod qilmoqni o'ziga shior qilib" umrguzaronlik qilganligini ham alohida ta'kidlaydi. Tarix g'ildiragi bir aylangach, u Bobur oyog'i ostiga tiz cho'kib keladi. "Boburnoma"da Xuroson saltanati taxtini qulashiga hissa qo'shgan, Amir Temur saltanati birligiga xiyonat qilib, uni zaiflashtirgan Xisravshohga nisbatan shiddatkor alamli so'zlar ko'p bora aytiladi. Ayni shu o'rinlarda to'g'rilik va adolat shiorini tutgani uchun g'oliblik nashidasini totgan sarkardaning ruhiy kayfiyati ham yaxshi ochilganiga qoyil qolamiz [Qudratillayev 2006]:

...Xisravshohni bir yarim kunda urush yo'q, talosh yo'q, bizningdek qallosh va mafluk ikki yuz-ikki yuz ellik kishining qoshida andoq xor-u zor va zabun va ojiz qildikim, ne navkarig'a ixtiyori qoldi, ne molig'a, ne jonig'a" [Bo6yp 1960, 182].

"Boburnoma"da hukmdor etiketi va siyosiy iyerarxiya tasviriga alohida e'tibor qaratiladi. Hukmdorlar haqida gapirar ekan ularning mamlakat boshqaruvi, devon va harbiy salohiyatiga alohida e'tibor beradi. Xususan, otasi haqida ilk mulohazasi otasi-ning hukmdorlik sifatleri bo'lib hisoblanadi.

"Chun Umarshayxmirzo baland himmatliq va ulug' doiyaliq podshoh erdi. Hamisha mulkgirlik dag'dag'asi bor erdi" [Bo6yp 1960, 63].

Shu yerda "mulkgirlik dag'dag'asi" degan ibora borasida to'xtalsak. Bobur bu sifatni garchi "Mulkgirlik dag'dag'asi jihatidin xili yarashlar urushqa va do'stluqlar dushmanliqqa mubaddal bo'lgur edi" deb e'tirof etsa-da mazkur sifatga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabati sezilib turadi. Bobur hukmdor sifatida munosabat bildirar ekan, hukmdorlardagi mulkgirlik sifatini ijobiy baholaydi. Bu munosabat uning boshqa hukmdorlar haqidagi mulohazalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni Bobur biror bir temuriy shahzoda yoki mirzoga baho berarkan uning shaxs sifatlarini baholashda olib borgan urushlari erishgan g'alabalariga muhim o'rin ajratadi. Bobur faoliyatida ham xuddi shu "mulkgirlik dag'dag'asi" uning hayoti davomidagi urushlar, mag'lubiyat va g'alabalar asnosida ko'rinib turadi.

Shuningdek, u otasining viloyatlari haqida gapirib, uning Shoxruhiyani firib bilan olib, bir qancha vaqt o'z qo'lida ushlab turganligini aytar ekan, bunga hech qanday salbiy munosabat bildirmaydi. Mulkgirlik talabi nuqtayi nazaridan otasining bu qilgan ishi hukmdor xatti-harakatiga mos kelardi. Jangda viloyat egallashda firib, ayyorlik ishlatish bizning bu sifatlar haqidagi hozirgi tasavvurimizdan ko'ra ayro ma'no kasb etishi ma'lum. Chunki dushmanga firib berish boshqa-yu, xalqqa adolat qilish boshqa. Xususan, keyingi o'rinda u Umarshayxning adolati haqida gapirib quyidagilarni yozadi: "Adolati bu martabada ediki, Xitoy karvoni keladurganda Andijonning sharqiy tarafidag'i tog'larning tubida ming o'yluk korvonni andog' qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib muhassillar yiborib, korvonning jami' jihatini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yo'q erdi, bovujudi ehtiyoj saxlab, bir-ikki yildin so'ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim topshurdi" [Бобур 1960, 64].

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, "Boburnoma" vatanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan temuriylar davri tarixi, madaniyati, turmush tarzi, jamiyatda hukmron bo'lgan qoida va rusumlar, qadriyatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, temuriylar saltanatidagi siyosiy iyerarxiya, hukmdorlik etiketi asarda yaqqol aksini topgan. Asarni chuqur o'rganish va tahlil qilish nafaqat Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va u yashagan davr haqidagi zarur ma'lumotlarni olishga, balki, mamlakatimiz tarixida uzoq yillar hukmron bo'lgan temuriylar sulolasi, ularning urf-odatlarini, madaniyati, toj-u taxt va saltanat

boshqaruvidagi qoidalar hamda ularning tanazzuli sabablarini o'rganishga ham imkon yaratadi.

### Adabiyotlar

- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1960. *Бобурнома*. Шамсиев П., Мирзаев С. Тошкент: Фан.
- Қудратиллаев, Ҳ. 2006. “Муниг зарари туркка ва мўғулга мусовийдур”. *Жаҳон адабиёти* 2.
- Қудратуллаев, Ҳ. 2016. “Бобурнинг давлатчилик сиёсати”. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. 19: 3.
- Азамат, З. 2001. “Ўзбек давлатчилиги тарихи”. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/613-maqola.html> (05.12.2022).
- Бобур. 1989. *Бобурнома*. Тошкент: Юлдузча.
- Bobur. 2017. *Boburnoma*. Тошкент: “O'qituvchi” NMIU.
- Xolmonova, Z. 2021. “*Boburnoma*” - *til qomusi*. Toshkent: “Akademnashr” NMM.
- Бобур ва бобурийлар библиографияси*. 2013. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Аслонов, И. 2022. “Бобурнома” бадий-психологик тасвир муаммоси объекти сифатида”. *O'zMU xabarlari* 1: 5. Toshkent.
- Aslonov, I. 2022. “The Problem of Artistic - Psychological Image in “Boburnoma”. *Eurasian Scientific Herald*, 7: 368–372.
- Aslonov, I. 2022. “Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in “Boburnoma”. *Central Asian journal of theoretical and applied sciences* 3(6), 224-227.

## Reflection of the image of the Timurid rulers in "Baburnama"

Ilhom Aslonov<sup>1</sup>

### Abstract

Zahiriddin Muhammad Babur was a writer, poet, scientist who occupied a special place in the culture, literature and poetry of the Middle Ages, and was also a great statesman and general. Zahiruddin Muhammad Babur created invaluable works in various fields of literature, art, history

---

<sup>1</sup> *Aslonov Ilhom Nizomovich* – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-pochta:** ilhom-aslonov@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-2055-1507

**Iqtibos uchun:** Aslonov, I.N. 2023. “Artistic and psychological depiction of royal etiquette and political hierarchy in "Baburnama". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 73–83.



